XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI KENGASHINING
Q A R O R I

2025-yil 26-dekabr VII-17-173-8-0-K/25 Surxondaryo viloyati

Surxondaryo viloyatining 2026-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 24-moddalari, Budjet kodeksining 27-, 99-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida” O‘RQ-1105-son Qonuniga muvofiq, Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2025-yil 25-dekabrdagi 01/57-1-29238-son xatini inobatga olib, xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashi **qaror qiladi:**

1. O‘zbekiston Respublikasining “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni (keyingi o‘rinlarda Qonun deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur Qonunga muvofiq, Surxondaryo viloyati mahalliy budjetining 2026-yilgi daromadlari **3 922,2 mlrd. so‘m** va xarajatlari **6 087,7 mlrd. so‘mga** ma’lumot uchun qabul qilinganligi hamda respublika budjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar **2 165,5 mlrd. so‘m** miqdorida, shundan aksiz solig‘i tushumlari hisobidan ajratiladigan transfertlar **279,1 mlrd. so‘m** miqdorida tasdiqlanganligi inobatga olinsin.

3. Belgilab qo‘yilsinki, 2026-yilda:

a) quyidagi soliq turlari va boshqa majburiy to‘lovlar viloyat budjeti hamda shahar va tumanlar budjetlari o‘rtasida taqsimlanadi:

qo‘shilgan qiymat solig‘i (bundan yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno);

foyda solig‘i (bundan yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno);

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i (bundan yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno);

benzin, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i;

yig‘imlar (qonunchilikda respublika budjetiga yo‘naltirilishi belgilangan yig‘imlardan tashqari);

jarimalar;

davlat bojlari;

davlat aktivlarini sotishdan mahalliy budjetlarga tushumlar;

qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalarni realizatsiya qilishdan tushadigan tushumlar;

b) viloyatning viloyat budjetiga quyidagi soliq turlari va boshqa majburiy to‘lovlar to‘lig‘icha o‘tkaziladi:

yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq;

yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo (import orqali kirgan mahsulotlardan tashqari) realizatsiyasi uchun aksiz solig‘i;

yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan foyda solig‘i tushumlari (O‘zbekiston Respubilkasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan ro‘yxatga muvofiq yirik soliq to‘lovchilar, O‘zbekiston Respublikasida doimiy faoliyat olib boruvchi muassasa orqali faoliyat yurituvchi O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan, shuningdek, norezidentlarning to‘lov manbaida ushlab qolinadigan daromadlaridan to‘lanadigan foyda solig‘idan tashqari);

elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

davlat daromadiga o‘tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushumlar;

mahalliy davlat hokimiyati organlarining ulushi bo‘yicha dividendlar (daromadlar) va ajratmalar;

mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig‘i va alkogol mahsulotlari, tamaki mahsulotlari aksiz solig‘i, shu jumladan pivo uchun aksiz solig‘idan tushumlar 2025-yil 1-iyul holatiga ko‘ra shahar va tumanlar aholisining viloyat aholisidagi ulushiga muvofiq to‘liq hajmda taqsimlansin;

boshqa tushumlar (a va b kichik bandlarda nazarda tutilgan tushumlardan tashqari barcha tushumlar);

d) quyidagi soliq turlari shahar va tumanlar budjetiga to‘liqligicha o‘tkazib beriladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

jismoniy shaxslarning mol-mulkini ijaraga berishdan olingan daromadlari bo‘yicha to‘lanadigan daromad solig‘i (bundan yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno);

aylanmadan olinadigan soliq;

davlat mulkini foydalanishga (ijaraga) berishdan tushadigan tushumlar;

qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq (bundan yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno);

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq (bundan yirik soliq to‘lovchilar va elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno);

yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i (bundan yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno);

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i (bundan yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno);

e) Yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan barcha soliqlar, soliqsiz tushumlar hamda yuqorida ko‘zda tutilmagan barcha boshqa tushumlar viloyat budjetiga yo‘naltiriladi.

4. Quyidagilar:

Surxondaryo viloyatining 2026-yilga rivojlantirishning makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognoz ko‘rsatkichlari hamda 2027-2028-yillarga mo‘ljallari **1-ilova**ga;

Surxondaryo viloyatining viloyat mahalliy budjeti daromadlarining 2026-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari **2-ilova**ga;

Surxondaryo viloyatning viloyat budjetidan 2026-yilda hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari **3-ilova**ga;

Bunda, mazkur qaror qabul qilingandan so‘ng bir kun muddatda tartibga soluvchi daromadlardan ajratmalarning normativlari bo‘yicha viloyatning viloyat budjeti bilan tumanlar va shaharlar budjetlarining taqsimotini o‘rnatilgan tartibda “Davlat moliyasini boshqarish axborot tizimiga” Surxondaryo viloyati G‘aznachilik xizmati boshqarmasi tomonidan kiritilishi belgilab qo‘yilsin.

viloyatning viloyat budjetidan shahar va tumanlar budjetlariga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdori **4-ilova**ga muvofiq tasdiqlansin.

5. Shahar va tumanlar budjetlarining 2026-yil daromadlari va xarajatlarning chegaraviy hajmi **5-ilova**ga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

6. Viloyatning viloyat budjeti shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan budjet mablag‘larining 2026-yilda yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **19,0 mlrd. so‘m** etib hamda 2026-yil uchun shahar va tumanlar budjetlari shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **6-ilova**ga muvofiq belgilansin.

7. Viloyatning viloyat budjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2026-yil uchun **31,9 mlrd. so‘m** miqdorida belgilansin.

2026-yil uchun Surxondaryo viloyatining viloyat budjeti, shahar va tumanlar budjetlarining zaxira jamg‘armalari tegishli budjetlar tasdiqlangan umumiy xarajatlarining (bundan shahar va tumanlar budjetlarining jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirishga doir mablag‘lari mustasno) kamida **1,0 foizi** miqdorida shakllantiriladi.

Bunda tumanlar va shaharlar budjetlarining zaxira jamg‘armalari miqdori oldingi yildagi hajmidan kam bo‘lmagan miqdorda shakllantirilishi hamda qo‘shimcha mablag‘larni shakllantirish viloyatning viloyat budjeti zaxira jamg‘armalari mablag‘larini kamaytirish hisobidan amalga oshirilganligi inobatga olinsin.

8. Viloyat hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari Sh.Rajabov, viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (Sh.Abdullayev), viloyat Soliq boshqarmasi (E.Narmanov) tuman (shahar) hokimliklari bilan birgalikda 2026-yil mahalliy budjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

9. Shahar va tumanlar hokimliklari, hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar 2026-yil uchun ajratilayotgan budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish, budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish, tegishli mahalliy budjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash hamda budjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

10. Viloyat Soliq boshqarmasi (E.Narmanov) hududiy soliq organlari bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlardan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida budjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini o‘rnatish;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish, ya’ni xatlov ishlarini samarali va muntazam tashkil etib borish vazifalari yuklatilsin.

11. Majburiy ijro byurosi viloyat boshqarmasi (T.Qurbonov), viloyat Soliq boshqarmasi (E.Narmanov) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini budjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsinlar hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko‘rish vazifasi yuklatilsin.

12. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Surxondaryo viloyat hududiy boshqarmasi (S.Xudoyberdiyev) Bo‘sh turgan obyektlardan samarali foydalanishni tashkil etish markazining Surxondaryo viloyati hududiy boshqarmasi (Y.Nomozov) bilan birgalikda:

bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini aniqlash bo‘yicha doimiy ravishda xatlov ishlarini tashkil etish;

xatlov natijalariga ko‘ra viloyatda mavjud bo‘sh turgan davlat mulki obyektlari ro‘yxatini shakllantirish, ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha tegishli takliflar tayyorlash vazifalari yuklatilsin.

13. “Amu-Surxon” irigatsiya tizimlari havza boshqarmasi (B.Alimov) va viloyat Soliq boshqarmasi (E.Narmanov) shahar va tumanlar hokimlari bilan birgalikda viloyatda sug‘orishga sarflanayotgan suv hajmlari bo‘yicha aniq hisob-kitoblar yuritgan holda mazkur iste’mol hajmlari bo‘yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarni to‘liq hisoblanishini hamda moliya yili yakuniga qadar mahalliy budjetlarga to‘liq undirib olish vazifasi yuklatilsin.

Bunda, qishloq xo‘jaligi korxonalari tomonidan iste’mol qilinayotgan suv resurslari hajmlari va ushbu hajmlar bo‘yicha hisoblanayotgan suv soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazishga alohida e’tibor qaratilsin.

14. Viloyat Ichki ishlar boshqarmasi (T.Ismailov), viloyat Adliya boshqarmasi (A.Isoqov) viloyatda budjetga hisoblangan boj, jarima va yig‘imlarni o‘z vaqtida to‘liq budjetga undirish choralarini ko‘rib borsinlar.

15. Xalq deputatlari hududiy Kengashlar hamda tuman (shahar) hokimlari O‘zbekiston Respublikasining Budjet kodeksining 27- va 28-moddalarida belgilangan budjet sohasidagi vakolatlaridan kelib chiqib, budjetga va davlat maqsadli jamg‘armalariga tushumlar to‘liq va o‘z vaqtida tushishi hamda budjet mablag‘larining maqsadli sarflanishi ustidan nazorat o‘rnatsin.

16. Hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar har chorak yakuni bilan budjet mablag‘larining samarali va maqsadli sarflanganligi, xarajatlarning amaliy natijalari yuzasidan xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashiga hisobot berib borsinlar.

Bunda, hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar:

budjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi;

o‘zlarining va tasarrufidagi tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallari hamda daromadlar va xarajatlar smetalarining to‘g‘ri tuzilishi;

budjetdan ajratilgan mablag‘larning maqsadli sarflanishi va maqsadli indikatorlarning to‘liq bajarilishi;

tasarrufidagi tizim tashkilotlariga budjetdan ajratiladigan mablag‘larning to‘g‘ri taqsimlanishi;

o‘z tasarrufidagi tizimda budjet intizomiga amal qilinishi ustidan nazorat qilinishini;

budjet jarayonining ochiqligini ta’minlash maqsadida rasmiy veb-saytlarda ma’lumotlarni joylashtirib borilishini ta’minlasinlar.

17. O‘zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasining Surxondaryo viloyati hududiy boshqarmasi (F.Samatov) shahar va tumanlar hokimliklari bilan birgalikda tashqi reklama obyektlarini to‘liq xatlovdan o‘tkazgan holda, ushbu tashqi reklama obyektlari bo‘yicha shartnomalar tuzish choralarini ko‘rsin hamda ushbu shartnomalar bo‘yicha yig‘imlarni budjetga to‘lanishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

18. Davlat moliyaviy nazorati Inspeksiyasi Surxondaryo viloyati boshqarmasi (N.Samanov) budjetdan ajratilgan mablag‘larni maqsadli ishlatilishini nazorat qilish va amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan har

chorakda xalq deputatlari viloyat Kengashi sessiyalarida axborot berib borish vazifalari yuklatilsin.

19. Viloyat hokimligi Axborot xizmati (M.Davlatov), viloyat Soliq boshqarmasi (E.Narmanov) viloyat hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari – viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi boshlig‘i Sh.Rajabov bilan birgalikda viloyat teleradiokompaniyasi hamda viloyatdagi boshqa ommaviy axborot vositalarida, hokimlik muassisligidagi gazetalarda Qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni e’lon qilinishi hamda hokimliklarning rasmiy veb-saytlariga joylashtirilishini tashkil etsin.

20. Mazkur qarorning tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda viloyat hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

21. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining Mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi (I.Yoqubov) hamda viloyat hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari Sh.Rajabov zimmasiga yuklatilsin.

22. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi **CHORIYEV ABDURAIM RAVSHANOVICH**

Xalq deputatlari Surxondaryo viloyati
Kengashining
2025-yil 26-dekabrdagi
VII-17-173-8-0-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Surxondaryo viloyatining 2026-yilga rivojlantirishning makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognoz ko‘rsatkichlari hamda 2027-2028-yilga mo‘ljallari

T/r	Ko‘rsatkichlar	2026-yil uchun prognoz	2027-yil uchun mo‘ljal	2028-yil uchun mo‘ljal
1.	Yalpi hududiy mahsulot, trln.so‘m	63,7	72,2	82,0
2.	Yalpi hududiy mahsulotning o‘sish sur’ati, foizda	106,1	106,3	106,4
3.	Iste’mol narxlari indeksi, dekabrda avvalgi yil dekabr oyiga nisbatan, foizda	9,8	9,6	9,6
4.	Sanoat mahsulotlarining o‘sish sur’ati, foizda	107,2	107,5	107,7
5.	Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaliklarida ishlab chiqarishning o‘sish sur’ati, foizda	103,3	104,2	105,0
6.	Chakana tovar aylanmasining o‘sish sur’ati, foizda	114,1	114,5	114,7

Xalq deputatlari Surxondaryo viloyati
Kengashining
2025-yil 26-dekabrdagi
VII-17-173-8-0-K/25 -son qaroriga
2-ilova

Surxondaryo viloyati mahalliy budjeti daromadlarining 2026-yilgi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

(ming so‘mda)

T/r	Daromad turlari	Jami
I.	**Mahalliy soliq va tushumlar**	**1 979 949 540**
1	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	86 586 600
2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	1 097 704 540
3	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	96 882 940
4	Aksiz solig‘i jami	329 027 710
	shu jumladan:	
	alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)	*1 619 400*
	Benzinni, dizel’ yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	*327 408 310*
5	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	32 700 000
6	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	67 894 000
7	Davlat bojlari	124 269 780
8	Jarimalar	96 484 710
9	Davlat unitar korxonalarining sof foydasidan davlat budjetiga ajratmalar	482 000
10	Noruda qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	4 360 000
11	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	2 665 000
12	Yig‘imlar	40 892 260
II.	**Respublika budjetidan ajratilgan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar**	**2 165 440 300**
	shundan, aksiz solig‘i tushumlari hisobidan ajratiladigan mablag‘lar	***279 138 000***
Daromadlar hammasi		**4 145 389 840,0**

Xalq deputatlari Surxondaryo viloyati
Kengashining
2025-yil 26-dekabrdagi
VII-17-173-8-0-K/25 -son qaroriga
3-ilova

2026-yil uchun Surxondaryo viloyatining viloyat budjetidan hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari

(ming so‘m)

T/r	Hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	Cheklangan miqdor
Xarajatlar miqdori, jami		**4 145 389 840**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**3 821 299 596**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	324 090 244
	Tuman va shahar mahalliy budjetlariga tartibga soluvchi transfertlar	**0**
1	**Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi**	**483 874 222**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**252 139 178**
	shundan:	
	“Yoshlik” sport markazi xarajatlari	0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	231 735 044
2	**Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar hududiy boshqarmasi**	**266 212 800**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**266 212 800**
	shundan:	
	Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasini saqlash xarajatlari	0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
3	**Sog‘liqni saqlash boshqarmasi**	**231 780 434**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**162 780 434**
	shundan:	
	Viloyat sog‘liqni saqlash boshqarmasi markaziy apparati	8 717 496
	Respublika o‘rta tibbiyot va farmatsevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi filiali	3 133 697

	Bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi	0
	Sog‘likni saqlash boshqarmasi kutubxonasi	409 721
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	69 000 000
4	**Madaniyat boshqarmasi**	**72 860 028**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**72 860 028**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
5	**Ma’naviyat va ma’rifat markazi**	**3 879 916**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**3 879 916**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
6	**Sport boshqarmasi**	**85 948 508**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**85 948 508**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
7	**Yoshlar ishlari agentligining hududiy boshqarmasi**	**3 939 273**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**3 939 273**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
8	**Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi**	**4 383 281**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**4 383 281**
	shundan:	
	Issiqlik ta’minoti tizimi tashkilotlari xarajatlari	0
	Ko‘p kvartirali uylardagi lift uskunalarini ta’mirlash va yangilash xarajatli	660 000
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
9	**Qishloq xo‘jaligi boshqarmasi**	**45 375 993**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**45 375 993**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
10	**Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi**	**153 004 550**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**145 674 550**
	shundan:	
	Sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash	37 400 000
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	7 330 000

11	**Transport boshqarmasi**	**3 748 604**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**3 748 604**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
12	**Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi boshqarmasi**	**38 440 956**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**38 440 956**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
13	**Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi**	**2 455 708 088**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**2 455 708 088**
	shundan:	
	Davlat organlari yoki ushbu organlar mansabdor shaxslarining qonunga xilof harakatlari (harakatsizligi) natijasida fuqarolar yoki yuridik shaxslarga yetkazilgan zararni qoplash xarajatlari	8 000 000
	Advokatlik xizmatlari xarajatlari	1 300 000
	Budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi hududiy boshqarmasini saqlash xarajatlari	13 188 395
	G‘aznachilik xizmati qo‘mitasining hududiy boshqarmasi	9 113 573
	Kadastr agentligi hududiy boshqarmasini saqlash xarajatlari	2 832 668
	Issiqlik ta’minoti xizmati uchun pasaytirilgan tariflarni qo‘llash natijasida yuzaga keladigan zararni qoplash xarajatlari (subsidiya)	1 542 984
	Tibbiy sug‘urta jamg‘armasiga o‘tkaziladigan transfertlar	2 407 214 436
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
14	**Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish boshqarmasi**	**1 701 761**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**1 701 761**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
15	**Davlat aktivlarini boshqarish agentligi hududiy boshqarmasi**	**1 338 616**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**1 338 616**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
16	**Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik boshqarmasi**	**7 693 608**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**7 693 608**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
17	**Investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi**	**5 440 616**

	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**5 440 616**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
18	**Adliya boshqarmasi**	**16 909 004**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**16 909 004**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
19	**Soliq boshqarmasi**	**88 578 500**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**88 578 500**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
20	**Hokimiyat**	**113 038 424**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**97 013 224**
	shundan:	
	Viloyat hokimligi huzuridagi tomorqa sug‘orish markazi davlat muassasasi	363 500
	Fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari xodimlarining malakasini oshirish o‘quv kursi	721 938
	Zaxira jamg‘armasi	31 956 441
	Xalqaro moliyaviy institutlardan O‘zbekiston Respublikasi kafolati asosida olingan kreditlar bo‘yicha to‘lovlar	13 688 373
	Xalqaro moliyaviy tashkilotlardan O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostida olingan kreditlar bo‘yicha asosiy to‘lovlar	17 458 102
	Avtobus yo‘nalishlarini subsidiyalash	1 200 000
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	16 025 200
21	**Hokimiyat (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)**	**19 143 951**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**19 143 951**
	shundan:	
	Qabul uylarini saqlash xarajatlari	8 124 926
	Axborot-kutubxona markazlari	3 220 077
	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	7 798 948
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
22	**Xalq deputatlari Kengashi kotibiyatini saqlash xarajatlari**	**11 171 403**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**11 171 403**
	shundan:	

	Nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi	5 972 327
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
23	**Agrosanoat majmui ustidan nazorat kilish inspeksiyasining hududiy viloyat boshqarmasi**	**9 557 290**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**9 557 290**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
24	**Ichki ishlar boshqarmasi**	**11 897 000**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**11 897 000**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
25	**Mudofaa ishlari boshqarmasi**	**4 425 418**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**4 425 418**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
26	**Oila va xotin-qizlar qo‘mitasinining hududiy boshqramasi**	**2 040 962**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**2 040 962**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
27	**Boshqa tashkilotlar**	**3 296 634**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**3 296 634**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	

Xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashining
2025-yil 26-dekabrdagi
VII-17-173-8-0-K/25 -son qaroriga
4-ilova

2026-yilda umumdavlat soliqlari va boshqa majburiy to‘lovlar hamda soliq bo‘lmagan to‘lovlar bo‘yicha belgilanadigan ajratma me’yorlari

T/r	Hududlar nomi	Qo‘shilgan qiymat solig‘i				Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i				Jismoniy shaxslar mol mulkini ijaraga berishdan			
		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga	
		Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar
1	Termiz shahri	0%	5%	100%	95%	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%
2	Oltinsoy tumani	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%
3	Boysun tumani	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%
4	Muzrabot tumani	0%	50%	100%	50%	0%	78%	100%	22%	0%	100%	100%	0%
5	Denov tumani	0%	3%	100%	97%	0%	46%	100%	54%	0%	100%	100%	0%
6	Jarqo‘rg‘on tumani	0%	50%	100%	50%	0%	55%	100%	45%	0%	100%	100%	0%
7	Qumqo‘rg‘on tumani	0%	25%	100%	75%	0%	64%	100%	36%	0%	100%	100%	0%
8	Qiziriq tumani	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%
9	Sariosiyo tumani	0%	50%	100%	50%	0%	67%	100%	33%	0%	100%	100%	0%
10	Termiz tumani	0%	10%	100%	90%	0%	50%	100%	50%	0%	100%	100%	0%
11	Uzun tumani	0%	50%	100%	50%	0%	97%	100%	3%	0%	100%	100%	0%
12	Sho‘rchi tumani	0%	50%	100%	50%	0%	76%	100%	24%	0%	100%	100%	0%

13	Sherobod tumani	0%	10%	100%	90%	0%	50%	100%	50%	0%	100%	100%	0%
14	Angor tumani	0%	50%	100%	50%	0%	57%	100%	43%	0%	100%	100%	0%
15	Bandixon tumani	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%

Davomi

T/r	Hududlar nomi	Foyda solig‘i				alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)				pivo			
		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga	
		Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar
1	Termiz shahri	0%	5%	100%	95%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%
2	Oltinsoy tumani	0%	100%	100%	0%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%
3	Boysun tumani	0%	100%	100%	0%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%
4	Muzrabot tumani	0%	80%	100%	20%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%
5	Denov tumani	0%	3%	100%	97%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%
6	Jarqo‘rg‘on tumani	0%	50%	100%	50%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%
7	Qumqo‘rg‘on tumani	0%	25%	100%	75%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%
8	Qiziriq tumani	0%	100%	100%	0%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%
9	Sariosiyo tumani	0%	50%	100%	50%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%
10	Termiz tumani	0%	10%	100%	90%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%
11	Uzun tumani	0%	50%	100%	50%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%
12	Sho‘rchi tumani	0%	50%	100%	50%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%
13	Sherobod tumani	0%	5%	100%	95%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%
14	Angor tumani	0%	50%	100%	50%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%
15	Bandixon tumani	0%	100%	100%	0%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%

Davomi

T/r	Hududlar nomi	benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i				Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq				Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i			
		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga	
		Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar
1	Termiz shahri	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%
2	Oltinsoy tumani	0%	58%	100%	42%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%
3	Boysun tumani	0%	55%	100%	45%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%
4	Muzrabot tumani	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%
5	Denov tumani	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%
6	Jarqo‘rg‘on tumani	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%
7	Qumqo‘rg‘on tumani	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%
8	Qiziriq tumani	0%	15%	100%	85%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%
9	Sariosiyo tumani	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%
10	Termiz tumani	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%
11	Uzun tumani	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%
12	Sho‘rchi tumani	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%
13	Sherobod tumani	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%
14	Angor tumani	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%
15	Bandixon tumani	0%	30%	100%	70%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%

Davomi

T/r	Hududlar nomi	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq				Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq				Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar			
		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga	
		Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar
1	Termiz shahri	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	0%	100%	100%
2	Oltinsoy tumani	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	0%	100%	100%
3	Boysun tumani	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	0%	100%	100%
4	Muzrabot tumani	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	0%	100%	100%
5	Denov tumani	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	0%	100%	100%
6	Jarqo‘rg‘on tumani	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	0%	100%	100%
7	Qumqo‘rg‘on tumani	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	0%	100%	100%
8	Qiziriq tumani	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	0%	100%	100%
9	Sariosiyo tumani	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	0%	100%	100%
10	Termiz tumani	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	0%	100%	100%
11	Uzun tumani	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	0%	100%	100%
12	Sho‘rchi tumani	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	0%	100%	100%
13	Sherobod tumani	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	0%	100%	100%
14	Angor tumani	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	0%	100%	100%
15	Bandixon tumani	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	0%	100%	100%

Davomi

T/r	Hududlar nomi	Davlat boji		Jarimalar		Yig‘imlar		Aylanmadan soliq		Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i		Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i		Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	
		Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga
1	Termiz shahri	25%	75%	25%	75%	25%	75%	100%	0%	100%	0%	100%	0%	100%	0%
2	Oltinsoy tumani	100%	0%	100%	0%	100%	0%	100%	0%	100%	0%	100%	0%	100%	0%
3	Boysun tumani	100%	0%	100%	0%	100%	0%	100%	0%	100%	0%	100%	0%	100%	0%
4	Muzrabot tumani	31%	69%	30%	70%	30%	70%	100%	0%	100%	0%	100%	0%	100%	0%
5	Denov tumani	0%	100%	0%	100%	0%	100%	100%	0%	100%	0%	100%	0%	100%	0%
6	Jarqo‘rg‘on tumani	24%	76%	25%	75%	25%	75%	100%	0%	100%	0%	100%	0%	100%	0%
7	Qumqo‘rg‘on tumani	18%	82%	20%	80%	20%	80%	100%	0%	100%	0%	100%	0%	100%	0%
8	Qiziriq tumani	62%	38%	62%	38%	62%	38%	100%	0%	100%	0%	100%	0%	100%	0%
9	Sariosiyo tumani	30%	70%	26%	74%	30%	70%	100%	0%	100%	0%	100%	0%	100%	0%
10	Termiz tumani	15%	85%	5%	95%	50%	50%	100%	0%	100%	0%	100%	0%	100%	0%
11	Uzun tumani	50%	50%	50%	50%	55%	45%	100%	0%	100%	0%	100%	0%	100%	0%
12	Sho‘rchi tumani	46%	54%	46%	54%	45%	55%	100%	0%	100%	0%	100%	0%	100%	0%
13	Sherobod tumani	3%	97%	3%	97%	5%	95%	100%	0%	100%	0%	100%	0%	100%	0%
14	Angor tumani	50%	50%	20%	80%	50%	50%	100%	0%	100%	0%	100%	0%	100%	0%
15	Bandixon tumani	100%	0%	100%	0%	100%	0%	100%	0%	100%	0%	100%	0%	100%	0%

Izoh: 1. Davlat aktivlarini sotishdan mahalliy budjetlarga tushumlar hamda yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarni sotishdan tushgan pul mablag‘lari shahar va tumanlar hamda viloyat budjeti o‘rtasida teng ulushlarda taqsimlanadi.

2. Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer uchastkalarini ijaraga berishdan tushadigan (3 450 890, 3 450 891, 3 450 892 daromad kodi bo‘yicha) tushgan pul mablag‘lari *shahar va tumanlar* budjetiga qoldiriladi.

3. Yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan barcha soliqlar, soliqsiz tushumlar xamda yuqorida ko‘zda tutilmagan barcha boshqa tushumlar viloyat budjetiga yo‘naltiriladi.

Xalq deputatlari Surxondaryo viloyati
Kengashining
2025-yil 26-dekabrdagi
VII-17-173-8-0-K/25 -son qaroriga
5-ilova

Surxondaryo viloyat mahalliy budjetining 2026-yil daromadlari va xarajatlarining chegaraviy hajmi

(ming so‘mda)

T/r	Hudud nomi	Mahalliy budjetlarning jami daromadlar	shundan		Mahalliy budjet xarajatlari
			Mahalliy budjet daromadlari	Tartibga soluvchi transfert miqdori*	
Jami		**6 087 662 900**	**3 922 222 600**	**2 165 440 300**	**6 087 662 900**
1	Viloyat budjeti	4 145 389 840	1 979 949 540	2 165 440 300	4 145 389 840
2	Termiz shahri	141 557 850	141 557 850		141 557 850
3	Oltinsoy tumani	135 921 640	135 921 640		135 921 640
4	Boysun tumani	108 525 000	108 525 000		108 525 000
5	Muzrabot tumani	116 820 750	116 820 750		116 820 750
6	Denov tumani	203 089 820	203 089 820		203 089 820
7	Jarqo‘rg‘on tumani	156 683 760	156 683 760		156 683 760
8	Qumqo‘rg‘on tumani	136 483 750	136 483 750		136 483 750
9	Qiziriq tumani	98 349 350	98 349 350		98 349 350
10	Sariosiyo tumani	151 778 000	151 778 000		151 778 000
11	Termiz tumani	93 242 420	93 242 420		93 242 420
12	Uzun tumani	131 407 100	131 407 100		131 407 100
13	Sho‘rchi tumani	147 524 370	147 524 370		147 524 370
14	Sherobod tumani	134 463 910	134 463 910		134 463 910

15	Angor tumani	106 116 740	106 116 740		106 116 740
16	Bandixon tumani	80 308 600	80 308 600		80 308 600

*Tamaki, alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo (import orqali kirgan mahsulotlardan tashqari) hamda mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig‘i bo‘yicha transfertlarni inobatga olgan holda.

Xalq deputatlari Surxondaryo viloyati
Kengashining
2025-yil 26-dekabrdagi
VII-17-173-8-0-K/25 -son qaroriga
6-ilova

2026-yilda viloyat, shahar va tumanlar mahalliy budjetlarida yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori

(ming so‘mda)

T/r	Hudud nomi	Miqdor
	JAMI	**19 000 000**
	shundan	
1	Viloyat budjeti	**13 703 514**
2	Termiz shahri	**446 294**
3	Oltinsoy tumani	**367 379**
4	Boysun tumani	**306 112**
5	Muzrabot tumani	**296 250**
6	Denov tumani	**560 825**
7	Jarqo‘rg‘on tumani	**353 018**
8	Qumqo‘rg‘on tumani	**386 032**
9	Qiziriq tumani	**271 387**
10	Sariosiyo tumani	**424 834**
11	Termiz tumani	**274 478**
12	Uzun tumani	**332 656**
13	Sho‘rchi tumani	**425 191**
14	Sherobod tumani	**354 140**
15	Angor tumani	**270 445**

16	Bandixon tumani	**227 445**